



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI .....	18
<b>Nazarov G'ayrat Xayrullayevich</b>	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
<b>Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
<b>Otamurodova Dildora Abdukrimovna</b>	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI .....	32
<b>Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
<b>Пулатова Мадина Бейсеновна</b>	
<b>Табаев Азамат Зарипбаевич</b>	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
<b>Palvanov Xusniddin Bekimmatovich</b>	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
<b>Пу Кебин</b>	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
<b>Xodjaniyazov Elbek Sardorovich</b>	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	57
<b>Avazova Nafisa Namazovna</b>	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI .....	61
<b>Saparova Shohida Abduvaliyevna</b>	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
<b>Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi</b>	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
<b>Tursunova Aziza Asrorovna</b>	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
<b>Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
<b>Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna</b>	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
<b>No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	100
<b>Kazakova Zulayho Salaxiddinovna</b>	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
<b>Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli</b>	
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b>	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
<b>Gapparov Sarvar Xolmurodovich</b>	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI .....	116
<b>Djumayeva Guzal Axtamovna</b>	
<b>Yadgarova Madina Xasan qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI .....	120
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b>	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
<b>Тиллахуджаев Аббосхон</b>	
<b>Дилфуза Шакирова</b>	
<b>Мухамедалиева Сайёра</b>	
<b>Ойбек Камилов</b>	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI .....	139
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
<b>Sultonboyeva Munira Bahodirovna</b>	
<b>Sultanova Kamila Muktorali Kizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
<b>Toshimov Azizbek Hakimovich</b>	
<b>Nomozov G'ofur Abdusalomovich</b>	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH .....	158
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich</b>	
<b>Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS .....	162
<b>Mamatkulova Shoira Jalolovna</b>	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
<b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</b>	
<b>Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
<b>Маматкулова Шоира Джалоловна</b>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
<b>Маматкулова Шоира Джалоловна</b>	



SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI .....	191
<b>Jurayeva Sevara Zakirovna</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI.....	197
<b>Tursunboyev Umarbek</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА .....	202
<b>Мирджалилова Дилдора Шухратовна</b>	
<b>Мансурова Сайёра Бахтиёровна</b>	
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	213
<b>Ж.О.Баходиров</b>	
О'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
<b>Mamatkulova Shoira Djalolovna</b>	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
<b>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI .....	237
<b>Shohrubbek Ruziyev</b>	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING .....	244
<b>Mamatkulova Shoira Djalolovna</b>	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
<b>Tashmatov Sherzod Rixsibayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	256
<b>Toshimov Azizbek Hakimovich</b>	
<b>Mamanov Isroil Islom o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI.....	260
<b>Toshimov Azizbek Hakimovich</b>	
<b>Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li</b>	
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN .....	264
<b>Dr Muhammad Bilal</b>	
<b>Gulyorabonu Usmonova</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI.....	275
<b>Xasanova Xamida Xaydaraliyevna</b>	
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	281
<b>Nazarova Shahodat Ravshan qizi</b>	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN INDUSTRIAL COMPANIES .....	286
<b>Musoyeva Rukhshona Javlon qizi</b>	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE.....	291
<b>Musayeva Shoira Azimovna</b>	



<b>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ VA BUXGALTERIYA ISLOHOTLARINING KORXONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI.....</b>	<b>298</b>
<b>Isayev Jahongir Muzaffarovich</b>	
<b>Jumaboyeva Zuhra Umidbek qizi</b>	
<b>YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR TOMONIDAN XODIMLAR DAROMADIDAN SOLIQNI TO'LOV MANBAIDA USHLAB QOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>302</b>
<b>Sabirov Mirza Qilichbayevich</b>	
<b>AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....</b>	<b>309</b>
<b>Sheraliyev Axror Sodiqovich</b>	
<b>Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li</b>	
<b>BIZNES INKUBATORLARNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	<b>314</b>
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b>	
<b>GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....</b>	<b>323</b>
<b>R.O. Obloberdiyeva</b>	
<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILIYATI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>329</b>
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
<b>Ishbekova Lobar Yunusxonovna</b>	
<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI .....</b>	<b>335</b>
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
<b>Ishbekova Lobar Yunusxonovna</b>	
<b>MUSOBAQA DAVRIDA MALAKALI MARKAZ O'YINCHILARINING HUJUM TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI .....</b>	<b>340</b>
<b>R.O. Obloberdiyeva</b>	
<b>RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ NIZOLARINI SUDGACHA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH .....</b>	<b>348</b>
<b>Solihova Xumora Xasan qizi</b>	
<b>IQTISODIYOTDA "DATA SCIENCE"NING O'RNI VA AHAMIYATI.....</b>	<b>354</b>
<b>Inatullayeva Intizor Jamshid qizi</b>	
<b>ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ И ФИНТЕХ-РЕШЕНИЙ .....</b>	<b>357</b>
<b>Абдуллаева Шахло Рустамовна</b>	
<b>MAXSUS IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY KATEGORIYALAR.....</b>	<b>365</b>
<b>Arslanov U.U.</b>	
<b>KORXONA BOSHQARUV TIZIMINI KOMPLEKS TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARI .....</b>	<b>372</b>
<b>Yusupov Nurillo Ikromjon o'g'li</b>	
<b>SANOAT SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH.....</b>	<b>378</b>
<b>Alijonov J.A.</b>	
<b>Abdusattorova Dilobar Abdujabborovna</b>	
<b>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOY HIMOYA VA BANDLIK SIYOSATINING ROLI.....</b>	<b>384</b>
<b>Murodullayev Saydali Fayzulla o'g'li</b>	
<b>XORAZM VILOYATIDA "POTENSIAL – SAMARADORLIK–BARQARORLIK" (PSB) STRATEGIYA MODELINI TATBIQ ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT.....</b>	<b>391</b>
<b>Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li</b>	
<b>KORPARATSIYALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR.....</b>	<b>395</b>
<b>Alijonov J.A.</b>	
<b>Egamberdiyeva Oydinoy Muhammadjon qizi</b>	



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MALAKALI KADRLARNING AHAMIYATI .....	402
<b>Alijonov J.A.</b>	
<b>Bozorboyeva Maftuna Turob qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	407
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
<b>Ashurova Jasmina Jo'ra qizi</b>	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEMS IN MODERN ENTERPRISES .....	411
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ogli</b>	
<b>Ashurova Jasmina Jora Kizi</b>	
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI .....	420
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA "TARBIYA" FANINI TABIIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASH ASOSIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH .....	427
<b>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</b>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ РАЗВИТИЯ БИЛИНГВИЗМА У ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯ .....	431
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
RESURSLAR AYLANMASINI BOSHQARISH VA SIRKULAR IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL-IQTISODIY SHARTLARI .....	437
<b>Kuzieva Nargiza Ramazanovna</b>	
<b>Xalikulova Gulzada Tojmuratovna</b>	
TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	445
<b>Almuradov Ne'mat Abdullayevich</b>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA IJTIMOIIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH .....	453
Sharifjonova Gulchehra	



# IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH

Sharifjonova Gulchehra –  
Navoiy davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası v.b. professori

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirish hamda ularni moliyalashtirishning samarali bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamkorlikni kengaytirish, xizmatlar samaradorligini oshirish hamda aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy himoya, xizmatlar sifati, bozor mexanizmlari, ijtimoiy infratuzilma, aholi farovonligi.

**Аннотация.** В последние годы реализуются масштабные реформы, направленные на совершенствование системы оказания социальных услуг населению, повышение качества и доступности услуг, а также внедрение эффективных рыночных механизмов их финансирования. Рассмотрены приоритетные направления развития сферы социальных услуг, вопросы расширения сотрудничества на основе государственно-частного партнёрства, повышения эффективности предоставления услуг и удовлетворения потребностей населения в социальной защите.

**Ключевые слова:** социальные услуги, финансирование социальных услуг, государственно-частное партнёрство, социальная защита, качество услуг, рыночные механизмы, социальная инфраструктура, благосостояние населения.

**Abstract.** In recent years, large-scale reforms have been implemented to improve the system of social service delivery, enhance the quality and accessibility of services, and introduce effective market-based financing mechanisms. The study examines the priority directions for the development of the social services sector, the expansion of public-private partnerships, the improvement of service efficiency, and the satisfaction of the population's social protection needs.

**Keywords:** social services, social service financing, public-private partnership, social protection, service quality, market mechanisms, social infrastructure, public welfare.

## KIRISH

Jahonda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish xo'jalik yuritishning barcha darajalarida shakllangan turli iqtisodiy manfaatlar tizimini takomillashtirish, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda uning ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi AQSHda 78 foizni, Yevropada 70 foizdan ortiqni, Xitoyda 51,6 foizni tashkil etgani holda, MDH davlatlari orasida Qozog'istonda bu ko'rsatkich 54,2 foizni, Belarusda 48,0 foizni, O'zbekistonda esa 47,3 foizni tashkil etgan<sup>1</sup>. O'z navbatida, mamlakatlar tomonidan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini kengaytirish, imkoniyatlar tengligini ta'minlash hamda xizmatlar sifati yanada oshirish masalalari tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini tubdan isloh etish, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifati oshirish va ularni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. "Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga, oliy ta'lim tizimida esa 50 foizga yetkazish, maktablarda ta'lim-tarbiya sifati va darajasini oshirishga ... . Yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish bilan birga, talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'yicha boshlagan ishlarimizni jadal davom ettiramiz"<sup>2</sup>. Bu

1 <http://www.ifc.org.msmecountryindikator>

2 <https://president.uz/uz/lists/view/4743>

borada aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini oshirish, ularning ro'yxati, hajmi, hisobini yuritish hamda qo'shimcha xizmatlar qiymatini hisoblash uslubiyotini joriy etish, vaucher taqdim etish orqali moliyalashtirish, oliy ta'lim muassasalari ta'isichiligida mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etish, bo'sh turgan bino va inshootlarni imtiyozli shartlarda talabalarga yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslarga ijaraga berish orqali ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning yana bir shakli iste'molchilarga subsidiyalar ajratish orqali xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirishda ishtirok etishdir. Xizmatlarni moliyalashtirishning bunday turi davlat tomonidan iste'molchilarning ma'lum toifalariga ayrim xizmatlarni taqdim etishda qo'llaniladi.

Ijtimoiy ne'matlarni taqdim etishning bunday shaklidan ijtimoiy tarmoqlarda (ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida) foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy xizmatlarga subsidiyalar berish vaucherli yoki aralash sxemalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu sxemalarning mohiyati shundan iboratki, iste'molchi ijtimoiy xizmatlardan, masalan, qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ijtimoiy xizmatlarga subsidiyalar berishning bunday sxemalarini joriy etish uchun davlat quyidagilarni o'z ichiga olgan zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratishi lozim:

- vaucher bo'yicha taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar ro'yxati;
- vaucher bo'yicha taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar hajmi;
- vaucherlar hisobini yuritish va ularni budjet mablag'lari hisobidan to'lash tartibi;
- taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlar qiymatini hisoblash uslubiyoti.

Oliy ta'lim xizmatlari rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri ularni moliyalashtirishda davlatning ishtirok etishidir. Ayni paytda oliy ta'limni moliyalashtirishga xususiy firmalar va mazkur xizmatlar iste'molchilarini jalb etish, sohada bozor mexanizmlarini rivojlantirishga ham e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor ulushlarining qay darajada bo'lishi lozimligi masalasi turlicha hal etilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha aralash mexanizm<sup>3</sup>

Tahlillarga ko'ra, iqtisodchi olimlar oliy ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda davlat tomonidan moliyalashtirish va xususiy moliyalashtirishni birgalikda amalga oshirish samarali ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq masalaning murakkab jihati ularning ulushi qanday bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligidadir. Yana bir jihat shundan iboratki, ta'limning qaysi yo'nalishi tanlanishiga davlatning yondashuvi va ta'lim oluvchilarning yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi, shu sababli ularning manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu sohaning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan boyitilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish bilan bog'liq ma'lumotlar rasmiy statistika hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida shakllantirildi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari umumlashtirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar baholandi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik, vaucher tizimi va xizmatlarni moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy natijalari tahlil qilinib, sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

3 Muallif ishlanmasi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarini amalga oshirishdan maqsad davlat korxonalarini tasarrufidagi foydalanilmayotgan yoki to'liq foydalanilmayotgan asosiy fondlar va infratuzilma obyektlariga investitsiyalar kiritish orqali ulardan davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanishni tashkil etishdan iborat. Bunda davlat-xususiy sheriklik hamkorligi davlat va xususiy sheriklarning ma'lum muddat davomida o'z resurslarini birlashtirgan holda faoliyat yuritishini nazarda tutadi.

Iqtisodiyotning ijtimoiy sohasida davlat-xususiy sheriklikning yuqoridagi shakllarini amalga oshirish uchun mintaqaviy va mahalliy darajalarda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Tahlillar ko'rsatishicha, bugungi kunda jahonda oliy ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish amaliyotida to'rtta model o'zaro farqlanadi. Ular bevosita moliyalashtirish, maqsadli moliyalashtirish, natijaviy moliyalashtirish hamda o'zini o'zi moliyalashtirish modellaridan iborat.

Bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishning iste'molchilarga vaucherlar taqdim etishga asoslangan 4 000 ga yaqin sxematik tuzilmalari shakllangan. Ular oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan tartibga solish va moliyalashtirish darajalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Jumladan<sup>4</sup>:

- oliy ta'lim xizmatlaridan foydalanish uchun to'lovlarning to'liq yoki qisman davlat tomonidan qoplanishi;
- kam ta'minlangan yoki ko'p bolali oilalar uchun oliy ta'lim xizmatlaridan foydalanganlik bo'yicha to'lovlarda imtiyozlarning mavjudligi;
- oliy ta'lim xizmatlaridan foydalanishga ehtiyoj yuqori bo'lgan sharoitda talabalarni saralab olish mexanizmining qanday tartibda tashkil etilganligi;
- bir vaucherni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirib o'tkazish imkoniyatining mavjudligi;
- mamlakat oliy ta'lim tizimida davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilganlik darajasi;
- oliy ta'lim xizmatlarining qamrov darajasi (barcha talabalarga davlat majburiyatlari yuklatilganligi, masalan, O'zbekistonda davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan talabalarga muayyan shartlar asosida diplom berilishi);
- oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim xizmatlari uchun to'lov-kontrakt miqdorini mustaqil belgilash imkoniyatining mavjudligi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari faoliyatining o'zini o'zi moliyalashtirish amaliyotiga o'tishi bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda 2016–2020-yillarda oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar sonining o'sish tendensiyasi bilan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat budjeti va to'lov-kontrakt mablag'lari ulushining o'zgarish ko'rsatkichlari o'rtasida regression-korrelatsion tahlil amalga oshirildi.

Bu tahlillar natijalariga ko'ra, talabalar sonining ortishi va oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari ulushi o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Bunday bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,61 ga teng bo'ldi. Hisob-kitoblarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining qo'shimcha 1 foizga ortishi davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ulushining qo'shimcha 3,3 foizga kamayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni va ularning faoliyatini moliyalashtirishda to'lov-kontrakt mablag'lari ulushi ko'rsatkichlari o'rtasida ham kuchli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Mazkur bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,62 ga teng bo'ldi. Tahlil natijalariga ko'ra, talabalar sonining qo'shimcha 1 foizga ortishi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishda to'lov-kontrakt mablag'lari ulushining qo'shimcha 6,0 foizga ortishiga sabab bo'lgan.

Regression-korrelyatsion tahlil natijalariga asoslangan holda, 2026-yilga qadar bo'lgan davr uchun talabalar sonining ortishi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishda davlat budjeti va to'lov-kontrakt mablag'lari ulushiga ta'siri bo'yicha pessimistik, inersion va optimistik prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda aholiga ta'lim xizmatlari ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sirini aniqlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bilan mamlakat mehnat bozorida ishsizlik darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromadlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi va prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.


Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni va mamlakatdagi ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflovchi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,59 ga teng bo'lib, mazkur omillar o'rtasidagi teskari bog'liqlik o'rta-yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

4 Беляков С.А., Заборовская А.С., Клячко Т.Л., Королев И.Б., Озерова Н.Б., Полушкина Е.А. Модели финансирования вузов: анализ и оценка / под ред. С.А. Белякова. – М.: Технопечать, 2005. – С. 81-82. [http://www.mirkin.ru/\\_docs/\\_econifin/model\\_finansirovaniya.pdf](http://www.mirkin.ru/_docs/_econifin/model_finansirovaniya.pdf)



Mazkur bog'liqlikka tayangan holda, 4-rasmda 2016–2021-yillarda talabalar sonining o'sish tendensiyasi 2026-yilgacha saqlanib qolgan taqdirda mamlakatimizda ishsizlik darajasini 2021-yildagi 9,6 foizdan prognoz davrida 6,2 foizgacha kamaytirish mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, o'rganilayotgan davrda talabalar soni va aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlikning sezilarli darajada kuchli ekanligi aniqlanib, korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,97 ga teng bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Aholining ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasini oshirishning jamiyat hayotiga ta'siri bo'yicha prognozlar<sup>5</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda aholining oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasining o'sish tendensiyasi so'nggi yillardagi sur'atlarda saqlanib qolgan taqdirda, 2026-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromadlar hajmini 2021-yilga nisbatan 45 foizga oshirish mumkinligi aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IFC MSME Country Indicators
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti
3. Belyakov S.A., Zaborovskaya A.S., Klyachko T.L., Korolev I.B., Ozerova N.B., Polushkina E.A. *Modeli finansirovaniya vuzov: analiz i otsenka* / pod red. S.A. Belyakova. – M.: Tekhnopечат, 2005. – B. 81–82.: [http://www.mirkin.ru/\\_docs/\\_econifin/model\\_finansirovaniya.pdf](http://www.mirkin.ru/_docs/_econifin/model_finansirovaniya.pdf)

5 Muallif ishlanmasi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>